

This is not registered version of TotalDacConverter

Ilk kitobni yozib bergan o'sha kuni qo'ng'alar o'ylab topishga urinaman, chiroyli so'zlar axtaraman...

"Quyoshning oltin nurlari daraxt yaproqlarini zar bilan o'radi, tubsiz osmonning moviy gumbazi mitti tilla sirg'achalarga to'ldi", kabi jimjimador jumlar tuzaman. Bu tasvirlar o'zimga yoqsa ham ko'nglimning bir chetida ularning allaqanday sovuqligini, yasamaligini, dilimdagi tuyg'ularimni ifoda qilishga ojiz ekanini sezib, qiynalaman, iztirob chekaman... Bir kuni qo'limga "Hojimurod" tushdi. Qissaning muqaddimasi, ya'ni qariqiz haqidagi hikoya ezmalikday tuyuldi. Men undan "sakrab" o'tdim, o'tdimu qissaning ilk misralarini o'qib g'alati bo'lib ketdim...

Menga shunday tuyuldiki, go'yo Tolstoy olis chechen ovulini emas, bizning qishloqni tasvirlagan. Ko'z oldimga qishloq o'rtasidagi machit, machitning yonidan soyga buriladigan tor ko'cha keldi. Ko'chani ikki tomonidagi pastqam uylarning tomolarida chollar bog' qo'rib yotishadi. Kechqurunlari qirdan pada qaytadi, borliqni qo'y-qo'zilarining ma'rashi to'ldiradi, mo'rilaridan tutun ko'tarilib, havoda tezak hidi burqsiydi. Xuddi Tolstoy tasvirlagan manzara!.. Nazarimda Hojimurod shu machit tomondan kelib, bizning tor ko'chaga burilgan, burilganu birinchi pastqam uyning tomidagi cholni (bu uyning tomida yong'og'ini qo'rib doim badjahl bir chol yotardi) uyg'otgan...

Meni ayniqsa "tezakning qo'lansa hidi" - degan so'zlar hayratga soladi. Tanish manzaralarni ko'z oldimga keltirgan, dilimda ajib hislar uyg'otgan narsa ham shu oddiy so'zlar, azon aytgan so'fining ovozi, mo'rilaridan ko'tarilgan tutunu tezakning qo'lansa hidi edi!..

Bu oddiy so'zlarning allaqanday teran siri bor edi. Bu sir sizni sehrab qo'yar, ko'z oldingizga siz olis chechen ovuli emas, o'z qishlog'ingiz, bolalikdan tanish manzaralar kelishining sababi ham shu sehrda edi!

Kitobni bir o'tirishda o'qib tugatdim. Hojimurodning o'limidan ko'nglim vayron, xo'rlikim kelib, xo'roz qichqiriqlariga, itlarning vovullashiga quloq solib uzoq yotdim. So'ng, kitobning birinchi sahifasidagi ulug'vor cholning suratiga, paxmoq qoshlar ostidagi o'tkir ko'zlarini kitobxoniga qadab turgan Tolstoyning suratiga tikildim. Bu suratni qaysi rassom chizgani hozir esimda yo'q. Shunisi esimdaki, Tolstoyning uzun soqoliga, do'ng peshanasiga, qudrat yog'ilib turgan miqti gavdasiga, allaqanday shafqatsiz chehrasiga tikilib uzoq yotdim, hayolimda esa undan yordam tilar, oq yo'l tilashini iltijo qilardim. Uyquga ketganimni bilmay qoldim. Bir mahal tush ko'ribman. Tushimda... Tolstoy!

Egnida o'sha uzun ko'ylik, ken panjali uzun qo'llarini ingichka qayish qamariga suqib, uyimizga sekin kirib kelgan emish. Meni chaqirib nimadir dedimi, yo deganday bo'ldimi, bilmadim, oyimlarning ovozidan uyg'onib ketdim. Tong otgan, oyim sigir sog'ayotgan edilar.

Men Tolstoydan, uning menga aytadigan gaplariyu, beradigan oq fotihasidan ayrilganimni sezib, dod deb yuborishimga oz qoldi. Xuddi tushida oltindan ayrilgan Afandiday ko'zimni qayta yumdim. Yo'q. Tolstoyni qaytarib bo'lmas edi!.. Oyimlardan ranjib, ancha to'lg'anib yotdim, keyin asta-sekin o'zimni yupata bosh-ladim. Axir Tolstoyning uyimizga kirib kelgani, meni chaqirib bir nima degani rost-ku! Shoshma. U menga nima dedi? Kelajakda yozuvchi bo'lishimga ishora qilmadimi?

Tolstoyning nima deganini eslash qiyin edi, lekin bora-bora u menga yaxshi gaplar aytganday tuyula boshladi, asta-sekin yozuvchilikka oq yo'l tilaganiga ham ishona boshladim, nazarimda, hatto boshimni ham silaganday bo'ldi...

Ko'nglim yorishib, o'rimdan turdim. Quvonchdan o'zimni qayoqqa qo'yishimni bilmas edim, tushimni bironvga tezroq aytgim, quvonchim bilan o'rtoqlashgim kelar edi.

Avgustning o'rtalari. Mendan bir-ikki yosh katta bir adashim bilan kun ora g'o'za sug'orar edik. O'sha kuni bizning navbatimiz edi. Rost, Odil mening "yozuvchi"ligimni, yozgan she'r va hikoyalarni tan olmas, lekin adabiyotni yaxshi ko'rar, kitobni ko'p o'qir, shu sabab, ikkimiz ancha yakin edik.

Men bog'imizdan chiqib, paxtazorga buriladigan yolg'iz oyoq yo'lga qadam qo'yganimda, Odil ham yetib keldi, qo'l berib ko'risharkan:

- Ha, og'izlar quloqda-ku? - deb piching qildi.

- Menga qara, Odil, bugun g'alati bir tush ko'rdim,- dedim. - Kulmasang aytib beraman.

- Xo'sh, xo'sh?

- Men bugun tushimda... Tolstoyni ko'rdim!

- Shunaqami? - Odil negadir ko'zini ko'zimdan uzib paxtazorga tikildi. - Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

- Ha, shu... Juda ajoyib odam edan!

- Senga... yozuvchilikka fotiha bergandir?

- Aytsam ishonmaysan-da! Lekin... chindan ham... yaxshi gaplar aytdi.

- Katta qo'llari bilan boshingni ham silagandir? Boshqa payt bo'lsa-ku, men uning ovozidagi kinoyani sezardim, albatta, lekin shoddigim ichimga sig'may turgan bir mahalda buni payqamadim.

- Ha, boshimni sekin siladi!

- Ha-ha-ha! Tolstoy boshini silagan emish! Ha-ha-ha! Orzularingdan o'rgilib ketay!

Odilning zaharli qahqahasi ustimga quyilgan bir chelak sovuq suvday ta'sir etdi. O'zimni qayoqqa yashirishni bilmay paxtazorga sho'ng'idim. Odildan, odamlardan yashirilib kechqurungacha yolg'iz ishladim, aytgan gaplarimni unutish uchun, uyatdan "qochib qutulish" uchun jon-jahdim bilan ishladim, tushimni esa hech qachon, hech kimga aytmalikka qasam ichdim. O'zim ham Tolstoyning buyukligini o'sha kuni tushundim-ov... Tolstoy shunchalik buyuk ediki, uni hatto tushimda ko'rdim deyish ham nokamtarinlik va maqtanchokdik bo'lardi!..